



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING
BUYRUG'I**

Toshkent sh.

№ 39

2024-y. "24" yanvar

**Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyatini
muvofiglashtiruvchi kengash faoliyatini takomillashtirish
to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 27-iyuldagi PF – 114-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 5-maydagi 144-son qaroriga muvofiq, bolalar musiqa va san'at maktablarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni yanada samarali tashkil etish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Ta'lim sohasini muvofiglashtirish bo'limi boshlig'i O.Salixovning 2024-yil 5-yanvardagi 4-son bildirishnomasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyatini muvofiglashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Kengash) to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

Kengashning hududlar kesimidagi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari** Kengash faoliyatini samarali amalga oshirishda amaliy yordam ko'rsatsin.

4. **Ta'lim sohasini muvofiglashtirish bo'limi** (O.Salixov) Kengash faoliyatini nazoratga olsin va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha monitoring yuritsin.

5. Kengash bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan joylarda o'quv-seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etsin va natijasi yuzasidan vazirlikka ma'lumot kiritib borsin.


6. Kengash raisi va a'zolari Kengash faoliyatidagi ishtiroki uchun o'zlari faoliyat ko'rsatadigan bolalar musiqa va san'at maktabining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan har oy oylik maoshining ellik foizi miqdorida rag'batlantirib borilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining "Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 25-yanvardagi 26-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining "Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish to'g'risida" 2022-yil 25-yanvardagi 26-son buyrug'i asosida faoliyat ko'rsatgan Direktorlar kengashi raislari **o'n kun muddatda** Kengash faoliyatiga oid barcha hujjatlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari arxiviga dalolatnoma asosida topshirsin.

9. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



O. Nazarbekov

Madaniyat vazirining
2024-yil 24-yanvardagi
39-son buyrug'iga
1-ilova

**Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyatini
muvofiglashtiruvchi kengash to'g'risida**

NIZOM

Ushbu Nizom Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyatini muvofiglashtirish va ularga uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida jamoatchilik asosida tashkil etilgan kengashning maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlarining faoliyatini muvofiglashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda – Kengash) Madaniyat vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va takomillashtirish, bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlariga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyat olib boradigan o'zini-o'zi boshqarish organi hisoblanadi.

2. Kengash o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi, Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi qarorlari va buyruqlari, hududiy boshqarmalarining hay'at yig'ilishi qarorlari, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

3. Kengash maktabdan tashqari ta'limning musiqa va san'at sohasi bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishda ko'maklashadi hamda ixtiyoriylik, teng va oshkoralik tamoyillariga muvofiq faoliyat yuritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bolalar musiqa va san'at maktablariga direktorlarni lavozimga tayinlash bo'yicha tavsiya beruvchi maslahat organi hisoblanadi.

4. Kengash hududlar kesimida tashkil etiladi va bolalar musiqa va san'at maktablarining eng tajribali, faol direktorlari tarkibidan madaniyat vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

5. Kengash Nizomi va tarkibi O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining buyrug'i bilan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir marta yangilab turiladi.

Zarurat tug'ilganda, Madaniyat vazirligi tomonidan Kengash tarkibiga qo'shimcha yoki o'zgartirish kiritilishi mumkin.

6. Kengash tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar to'g'ridan-to'g'ri Madaniyat vazirligiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari

7. Kengashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bolalar musiqa va san'at maktabi direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlarga, yuqori malaka va tajribaga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tanlash, saralash asosida munosib nomzodlar bo'yicha tavsiya berish;

bolalar musiqa va san'at maktablari oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali amalga oshirish, ular faoliyatini takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish;

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha dolzarb masalalarga oid tavsiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar tayyorlash;

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid dolzarb muammolarni hal etish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi (keyingi o'rinlarda – vazirlik)ning Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limiga taklif kiritish;

xorijiy davlatlarda madaniyat va san'at sohasidagi ta'lim muassasalari faoliyatining ilg'or tajribalarini o'rganish hamda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish;

turdosh ta'lim muassasalari, madaniyat, musiqa va san'at jamoalari, ijodiy uyushmalar va jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlik qilish;

bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim jarayonini tashkil etishga oid o'quv hujjatlarini yuritish bo'yicha seminarlar tashkil etish;

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini o'rganib borish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish;

fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish va hal etishda bolalar musiqa va san'at maktablariga ko'maklashish;

o'quv rejalari, dasturlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ko'maklashish;

bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlarining reyting ko'rsatkichlari yillik o'sish dinamikasini ko'rib chiqish jarayonlariga ko'maklashish;

hududdagi bolalar musiqa va san'at maktablariga tegishli tahliliy ma'lumotlarni tayyorlashga ko'maklashish;

ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyati samaradorligini baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari, o'qituvchi va konsertmeysterlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilgan holatlarda vakolati doirasida tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv, o'quv-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish yakunlari bo'yicha direktor hamda uning o'rinbosarlarining lavozimiga loyiq yoki noloyiqligi yuzasidan vazirlikka tavsiyalar kiritish;

bolalar musiqa va san'at maktablari boshqaruvida sog'lom muhitni tashkil etish maqsadida pedagoglar, ota-onalar, o'quvchilar o'rtasida so'rovnomalar va o'rganishlar o'tkazish.

3-bob. Kengashning huquq va majburiyatlari

8. Kengash o'zining asosiy vazifalarini amalga oshirishda quyidagi huquqlarga ega:

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid turli masalalar bo'yicha hududiy boshqarmalarga taklif kiritish;

o'z vakolatiga taalluqli vazifalarni bajarish jarayoniga jamoatchilik asosida ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, madaniyat va san'at arboblari hamda boshqa mutaxassislarni kelishuv asosida jalb etish;

o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda tegishli ravishda davlat organlari va tashkilotlari hamda bolalar musiqa va san'at maktablaridan so'rab olish;

bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv, o'quv-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini o'rganish;

bolalar musiqa va san'at maktablarining pedagog va rahbar xodimlarini davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash bo'yicha hududiy boshqarmalarga takliflar kiritish.

9. Kengashning majburiyatlari:

o'z vakolatiga kiradigan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid dolzarb masalalar bo'yicha seminarlar tashkil etish va o'tkazish;

bolalar musiqa va san'at maktablaridagi ta'lim jarayoni ishtirokchilarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim sohasidagi va korrupsiya to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga to'liq amal qilishi;

Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Kengash faoliyatini tashkil etish

10. Kengash, qoidaga ko'ra, rais, Kengash kotibi va Kengash a'zolaridan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Bunda, Kengash a'zolari soni hududdagi bolalar musiqa va san'at maktablari sonidan kelib chiqqan holda (Qoraqolpog'iston Respublikasida rais, kotib va uch nafar a'zo; viloyatlarda bolalar musiqa va san'at maktablarining soni 1-29 ta bo'lgan hududlarda rais, kotib va bir nafar a'zo; 30 ta va undan ortiq bo'lgan hududlarda rais, kotib va uch nafar a'zo) belgilanadi.

11. Kengash ish rejasi bir o'quv yili uchun tuziladi va Kengash raisi tomonidan tasdiqlanadi.

12. Kengashning yig'ilishlari hududiy boshqarmalar bilan o'quv yili davomida kamida 3 marta o'tkaziladi. Zaruratga ko'ra navbatdan tashqari yig'ilishlar o'tkazilishi mumkin.

Kengash yig'ilishi qarori uning a'zolari umumiy sonining kamida 2/3 qismi ishtirok etgan taqdirda qabul qilinadi.

13. Kengash raisi va uning a'zolari (yoki boshqa ishga o'tganda) hududiy boshqarmaning tavsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

14. Kengash qarori yig'ilishda ishtirok etuvchi Kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

15. Kengash qarori bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi. Kengash bayonnomalarini raqamlash o'quv yili boshidan amalga oshiriladi.

16. Kengash yig'ilishi bayonnomalari hududiy boshqarmalar arxivida saqlanadi.

17. Barcha kiruvchi va chiquvchi xatlar Kengashning hujjatlarni qayd etish kitobida rasmiylashtiriladi.

18. Kengash o'z faoliyati yuzasidan yillik hisobot tayyorlaydi va hududiy boshqarma hamda vazirlikka taqdim etadi.

19. Kengash a'zosi bilan asosiy ish joyidan tuzilgan mehnat shartnomasi to'xtatilganda hududiy boshqarmalar tomonidan nomzod tavsiya etiladi va madaniyat vaziri buyrug'i bilan Kengash tarkibiga kiritiladi.

5-bob. Kengash raisi va kotibining vazifalari

20. Kengash raisi:

Kengash faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

Kengash a'zolari o'rtasidagi vazifalarni taqsimlaydi;

Kengash yig'ilishini o'tkazish vaqti va unda ko'riladigan masalalarni belgilaydi;

Kengash yig'ilishiga raislik qiladi;

har yili Kengash amalga oshirgan ishlar yuzasidan hisobotni hududiy boshqarma va vazirlikka taqdim etadi.

21. Kengash kotibi:

Kengash yig'ilishiga material tayyorlaydi, boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshiradi;

Kengash yig'ilishida ko'riladigan masalalar, shuningdek, ularga oid ma'lumotlar bo'yicha qaror loyihalarini o'z vaqtida tayyorlashni tashkil etadi;

Kengash yig'ilishining vaqti, joyi va kun tartibi haqida Kengash a'zolarini xabardor qiladi. Ularga ko'rib chiqiladigan ma'lumotlarni yuboradi;

Kengash qarori bilan manfaatdor shaxslarni tanishtiradi;

Kengash yig'ilishi bayonnomalarini yuritadi va rasmiylashtiradi;

Kengash hujjatlarini o'rnatilgan tartibda yuritadi va saqlashni ta'minlaydi;

Kengash kotibi Kengash yig'ilishlarida ovoz berish huquqiga ega;

6-bob. Korrupsiyaga qarshi shartlar

22. Kengash a'zolaridan biri o'quv, o'quv-uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini o'rganilayotgan bolalar musiqa va san'at maktabida mehnat faoliyatini olib borsa o'rganish yakuniga yetguniga qadar Kengash a'zolidan vaqtincha chetlatiladi.

Bunda, mazkur xodimning (Kengash a'zosi) vazifasi Kengashning boshqa a'zolaridan biriga yuklatiladi hamda mazkur holat yuzasidan vazirlikka axborot kiritiladi.

7-bob. Kengash raisi va a'zolarini rag'batlantirish

23. Kengash raisi hamda a'zolari Kengash faoliyatidagi ishtiroki uchun o'zlari faoliyat ko'rsatadigan bolalar musiqa va san'at maktabining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan har bir oylik maoshining ellik foizi miqdorida rag'batlantiriladi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

24. Kengash faoliyatini muddatidan oldin to'xtatish va uning yangi tarkibini tayinlash Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi tavsiyasiga asosan vazir buyrug'i bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat vazirining
2024-yil 24-yanvardagi
39-son buyrug'iga
2-ilova

**Bolalar musiqa va san'at maktablari direktorlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
kengashning hududlar kesimida
TARKIBI**

T/r	F.I.SH.	Lavozimi	Hududi
Qoraqalpog'iston Respublikasi			
1	Yerejepov Artiqboy Abillayevich	Nukus shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Qoraqalpog'iston Respublikasi
2	Muxammeddinov Sultan Najmaddinovich	Nukus shahar 12-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qoraqalpog'iston Respublikasi
3	Jumaboyev Axmad Oybek o'g'li	Amudaryo tumani 21-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qoraqalpog'iston Respublikasi
4	Ibrayimov Ruslan Nazarimbetovich	Chimboy tumani 24-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qoraqalpog'iston Respublikasi
5	Saidov Raxmatjon Bazarbayevich	Ellikqal'at tumani 18-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qoraqalpog'iston Respublikasi
Andijon viloyati			
6	Matg'oziyev Olimjon Qobulovich	Buloqbooshi tumani 14-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Andijon viloyati
7	Mamajonov Isroil Ibroximjonovich	Andijon tumani 16-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Andijon viloyati
8	Davlatov Ismoiljon Ibraximjonovich	Paxtaobod tumani 25-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Andijon viloyati
Buxoro viloyati			
9	Atobullayev To'xtamurod Sulaymonovich	Qorako'l tumani 16-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Buxoro viloyati
10	Gulyamov Umed Tishayevich	Buxoro shahar 4-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Buxoro viloyati

11	Axmedova Sadoqat Abdusamatovna	Olot tumani 4-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Buxoro viloyati
Jizzax viloyati			
12	Bekto'raeva Shohista Mirzabekovna	Zarbdor tuman 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Jizzax viloyati
13	Qosimov Islomjon Mamarajab o'g'li	Yangiobod tumani 19-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Jizzax viloyati
14	Murodova Nargiza To'lqin qizi	Forish tumani 18-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Jizzax viloyati
Navoiy viloyati			
15	Ortiqov Hamza Parmonovich	Navbahor tumani 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Navoiy viloyati
16	Tillaev G'ayrat Ne'matovich	Qiziltepa tumani 3-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Navoiy viloyati
17	Abduraxmonov Erali Erkinovich	Navoiy shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Navoiy viloyati
Namangan viloyati			
18	Gaffarova Shoira Shavkatovna	Namangan shahar 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Namangan viloyati
19	Rustamov Ne'matxon Batirovich	Chust tumani 16-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Namangan viloyati
20	Davronov Axmadjon Samijonovich	Pop tumani 7-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Namangan viloyati
Qashqadaryo viloyati			
21	Umarov Faxriddin Narbayerovich	Qarshi shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Qashqadaryo viloyati
22	Mirzayev Oybek O'ktam o'g'li	Shahrisabz shahar 20-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qashqadaryo viloyati

23	Muminov Qaxramon Avloyevich	Kitob tumani 10-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Qashqadaryo viloyati
Sirdaryo viloyati			
24	Rustamova Nigoroy Xaligitovna	Guliston shahar 1-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Sirdaryo viloyati
25	Suyundiyev Farxodjon Azamovich	Mirzaobod tumani 6-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Sirdaryo viloyati
26	Alimov Jamshid Nurullayevich	Guliston shahar 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Sirdaryo viloyati
Samarqand viloyati			
27	Xusainov Ismoil Xaydarovich	Samarqand shahar 3-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Samarqand viloyati
28	Nurmurodov Davron Najmiddinovich	Kattaqo'rg'on shahar 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Samarqand viloyati
29	To'lqinov Jamshid To'lqinovich	Bulung'ur tuman 9-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Samarqand viloyati
30	Mamatqulov Sherzod Yorqulovich	Toyloq tuman 29-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Samarqand viloyati
31	Sharipov Halim Raimovich	Pastarg'om tuman 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Samarqand viloyati
Surxondaryo viloyati			
32	Hakimov Bozor Ergashovich	Qumqo'rg'on tumani 11-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Surxondaryo viloyati
33	Agzamova Nargiza Mirvaliyevna	Termiz shahar 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Surxondaryo viloyati
34	Niyozov Erkin Ashurovich	Boysun tumani 6-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Surxondaryo viloyati
Farg'ona viloyati			
35	Abdug'ofurov Azamjon Turg'unaliyevich	Yozyovon tuman 28-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Farg'ona viloyati
36	Usmanov Burxon Baxromovich	Qo'qon shahar 6-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Farg'ona viloyati
37	Baratova Nigoraxon Axmatjanovna	Farg'ona shahar 4-son bolalar musiqa va san'at maktabi direktori.	Farg'ona viloyati

38	Tojiboyeva Xavasxon Mirboboyevna	Beshariq tumani 18-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori	Farg'ona viloyati
39	Asqarov Baxodirjon Abdupattoyevich	Bog'dod tumani 16-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori	Farg'ona viloyati
Toshkent viloyati			
40	Mardieva Valeriya Shamilevna	Nurafshon shahar 12-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Toshkent viloyati
41	Nurmatova Gulnora Djurayevna	Chirchiq shahar 7-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent viloyati
42	Isroilova Nilufar Jalolovna	Chirchiq shahar 15-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent viloyati
43	Toirov Xasan Nazirovich	Ohangaron tumani 31-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent viloyati
44	Axmedov Baxtiyorjon Usmonovich	Bekobod shahar 20-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent viloyati
Xorazm viloyati			
45	Salayev Maqsudbek Boynazarovich	Urganch tuman 18-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Xorazm viloyati
46	Olimov Ruslan Maxmudovich	Xonqa tumani 7-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Xorazm viloyati
47	Matchonov Bahodir Masharipovich	Xiva tuman 12-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Xorazm viloyati
Toshkent shahar			
48	Muxitdinova Muxabbat Bakiyevna	Mirobod tumani 4-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori, Kengash raisi.	Toshkent shahar
49	Kurbanov Baxtiyor Baxodirovich	M.Ulug'bek tumani 14-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent shahar
50	Nabieva Xakima Mavlonovna	Sergeli tumani 21-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent shahar
51	Rasulova Feruza Yusupovna	Mirobod tumani 22-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori.	Toshkent shahar
52	Appazova Lenara Imarnovna	Uchtepa tumani 16-son bolalar musiq va san'at maktabi direktori	Toshkent shahar